

## SURXONDARYO SHEVALARINING NAZARIY ASOSLARI

**Bobomuradova Madina Erkin qizi**

Termiz Davlat Pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi, 1-bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Surxondaryo hududidagi shevalarning shakllanishi, tasnifi, dialektologik o‘rganilish tarixi, lingvistik yo‘nalishlari, lahjashunoslik tarkibi asosida nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shevalarning fonetik, morfologik va leksik-semantik qatlamlari nazariy dialektologiya atrofida o‘rganilib, ularning etnolingvistik va areal lingvistika nuqtayi nazaridan tasniflanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *dialektologiya, areal lingvistika, etnolingvistika, tarixiy-komparativ yondashuv, etnografik leksika, unli fonemalar, undosh tovushlar evolyutsiyasi.*

### АННОТАЦИЯ

*В статье теоретически анализируются формирование, классификация, история диалектологического изучения, лингвистические направления и диалектология диалектов Сурхандарьинской области. Фонетический, морфологический и лексико-семантический пласты диалектов изучаются в рамках теоретической диалектологии и классифицируются с позиций этнолингвистики и ареального языкознания.*

**Ключевые слова:** *диалектология, ареальное языкознание, этнолингвистика, историко-сравнительный подход, этнографическая лексика, гласные фонемы, эволюция согласных.*

### ABSTRACT

*This article theoretically analyzes the formation, classification, history of dialectological study, linguistic trends, and dialectology of the dialects in the Surkhandarya region. The phonetic, morphological, and lexical-semantic layers of the dialects are studied within the framework of theoretical dialectology and classified from the perspective of ethnolinguistics and areal linguistics.*

**Keywords:** *dialectology, areal linguistics, ethnolinguistics, historical-comparative approach, ethnographic lexicon, vowel phonemes, consonant evolution.*

### KIRISH

O‘zbek tili shevalarini o‘rganish tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishlaridan biri – dialektologiya sohasining asosiy tadqiqot obyekti sanalanadi. O‘zbek tili o‘z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan. Ular quyidagilar:

- Qarluq lahjasi
- O‘g‘uz lahjasi
- Qipchoq lahjasi

Samixon Ashurboyev shevalar bo‘yicha quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi: <sup>1</sup>”Har bir lahjaning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari V,V, Reshetov klassifikateiyasida beriladi”. O‘zbekistonning janubiy mintaqasi hisoblangan Surxondaryo viloyati shevalari o‘zbek tili lahjalari orasida eng qadimiy qatlamlarga ega bo‘lib, ular turkiy, mo‘g‘uliy, tojik va afg‘on tillari bilan areal aloqadorlikda rivojlangan. Ushbu hudud shevalarini nazariy jihatdan tahlil qilish, adabiy til bilan dialektlar o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash, tarixiy-lisoniy jarayonlarni tiklash, xalq etnomadaniyatini ko‘rsatishda muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

Dialektologiya mahalliy nutq turlarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganuvchi soha bo‘lib, Surxondaryo shevalari quyidagi nazariy shakllar asosida tahlil qilinadi:

Struktural (tuzilish) yondashuv – shevaning fonetik va grammatik birliklari tizim tarzida o‘rganiladi.

Areal lingvistika – shevalarning geografik tarqalishi, qo‘shni tillar orqali tahlil qilinadi.

Etnolingvistika – shevadagi leksika xalqning turmush tarzi va mentaliteti bilan bog‘liq holda izohlanadi. Tarixiy-komparativ yondashuv– bu yo‘nalishda shevalar qadimgi turkiy lahjalar bilan qiyoslanadi. Surxondaryo shevalarining dialekt tizimidagi o‘rni. Surxondaryo shevalari qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining janubiy qismiga mansub bo‘lib, ayrim hududlarda o‘g‘uz va tojik tillarining ham ta’siri seziladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Surxondaryo shevalarining shakllanish nazariyasi. Tarixiy-etnik omillar nazariyasi. Surxondaryo qadimdan turli etnoslar markazida joylashgan. Viloyatda yashab kelayotgan turli millat vakillari ushbu hududning etnosiga ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Qarluq, chigil, yağmo, qang‘li, tojik va hattoki afg‘on qabilalari, mahalliy til tizimiga ta’sir ko‘rsatgan. Bu ko‘rsatkich dialektning: fonetik tizimidagi o‘zgarishlar; tojikcha-forscha o‘zlashmalar; qadimiy turkiy ot-affikslar mavjudligida namoyon bo‘ladi.<sup>2</sup>

Areal lingvistika asoslari. Areal lingvistika shevalarning bir-biriga ta’sirini geografik joylashuv asosida o‘rganadi. Surxondaryo shevalarida Termiz–Sherobod–Boysun hududlarida o‘ziga xos “janubiy izoglossalar” aniqlangan, jumladan:

<sup>1</sup> Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent 2013.6-bet.

<sup>2</sup> . Rahimov S. Surxondaryo O‘zbek tili shevalari lug‘ati (Fonetikasi, Leksikasi).- Toshkent:Fan1969.

“o-u” torayishi (bor-bur);

“a” ning cho‘ziq talaffuzi (dada-dadā);

“g/v” almashinuvi (tog‘-tov); Bu izoglossalar janubiy tojik shevalari bilan birgalikda uyg‘unlikni kasb etadi.

Surxondaryo shevalarining fonetik asoslari. Unli fonemalar tizimi

Surxondaryo shevalarida 9 ta unli fonema faol:

a, ā, o, u, e, i, ö, ü, ë

Bu tizim qadimgi turkiy unli sistemaga yaqin bo‘lib, hozirgi adabiy tilga nisbatan kengroq diapazonga ega. Undosh tovushlar evolyutsiyasi

q/v almashuvi: qishloq-qishlov, sh-ssh (geminatsiya): ish-ishsh

r yo‘qolishi: bor - bou; kelur -kelu

Bu jarayonlar fonetik iqtisod (artikulatsion yengillashuv) nazariyasi bilan izohlanadi.<sup>3</sup>

Grammatik asoslar

Morfologik struktura nazariyasi

Surxondaryo shevalarida grammatik kategoriyalar qadimiy turkiy qo‘shimchalar va yangi variantlar bilan shakllangan.

Ko‘plik qo‘shimchasi variantlari, -lar, -lor, -ler

Bu variantlarning mavjudligi areal lingvistika – fonetik muhit bilan bog‘liq.

Fe‘l affikslarining nazariy ko‘rinishi davomiylik bildiruvchi –vot/–vat:

kelvotman, borvatdi, qadimiy –sun/–sin buyruq shakli saqlangan:

borsun, kelsin.

Sintaktik o‘ziga xosliklar

Gapda tojikcha sintaksis ko‘rinishlari mavjud:

U kelgan, man bilgan. (odatiy bog‘lovchisiz qo‘shma gap)

Ta‘kidlovchi yuklamalar: ku, -u, -da

Man aytganmanku!

Leksik- semantik asoslar

Mahalliy leksika nazariy tahlili

Mahalliy leksika etnografizmlar, qadimiy turkiy nomlar, tojikcha o‘zlashmalar va yangi ijtimoiy terminlardan iborat.

Etnografik leksika:

qiz bazmi, ko‘pkari, kelin salom, chaqirdi, qirq tovoq.

Turkiy arxaik so‘zlar:

yag‘mir (yomg‘ir), bo‘riq (to‘yib ketgan), qara’ (ko‘r).

Tojik tilidan kirgan so‘zlar: saboq, poygoh, daryo, ro‘zg‘or, sabza.

<sup>3</sup> Mengliyev B. Xoliyorov. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. Toshkent-2008.

Semantik o'zgarishlar nazariyasi

Kengayish: qiz – (qiz bola + yosh kelin)

Torayish: daryo – (katta daryo emas, “soy” ma’nosida ishlatiladi)

Surxondaryo shevalarining etnolingvistik asoslari. Til va madaniyat munosabati shevalarda, xalq urf-odatlarini leksikada aks etadi. Masalan:

kuyov supa, balog‘at oshi, mardikor bozori. Etnolingvistika nazariyasiga ko‘ra, shevada mavjud bo‘lgan bu birliklar xalq tafakkurining tilga ko‘chgan shaklidir.

Mentalitet bilan bog‘liq iboralar.

Qo‘li kalta – kambag‘al

Ko‘ngli ochiq – yaxshi niyatli

Ovi baroridan keldi – omadi kelgan

Bu iboralar Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashini ifodalaydi.

Surxondaryo shevalari bo‘yicha tadqiqotlarning tarixiy bosqichlari:

Fitrat, G‘ulomov asarlarida janubiy o‘zbek dialektlariga dastlabki tavsif berilgan. Xususan, shevaga xos leksik birliklar adabiy til leksikasiga qiyosan, shuningdek, areal dialectal birliklarning turli xususiyatlari Y.D.Polivanov, G‘.O.Yunusov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Afzalov, H.G‘ulomov, T.Mirsoatov, A.Aliyev, S.Ibrohimov, N.G‘afurova, I.Shamsiddinov, S.Rahimovkabi qator tilshunos olimlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan. Qolaversa, hududiy jihatdan O‘zbekiston Respublikasiga kirmagan hududda istifoda etiladigan o‘zbek shevalari ham S.Zufarov, T.Yo‘ldoshev, H.Sharipov tomonidan chuqur o‘rganilgan. O‘zbek xalq shevalarining leksikografik talqini masalasi A.Ishayev, R.Jomonov singari tilshunos olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Rahmatullaev, G‘aniev, Doniyorov Surxondaryo shevalarining fonetik-morfologik tizimini ilmiy tasnif qildi. Mustaqillik davri tadqiqotlari, etnolingvistik va sotsiolingvistik yondashuvlar kuchaydi. Mahalliy ekspeditsiyalar asosida yangi leksik birliklar qayd etildi.

## **XULOSA**

Surxondaryo shevalari nafaqat o‘zbek tili dialektlarining muhim tarkibiy qismi, balki xalqning tarixiy-etnomadaniy merosini mujassamlashtiruvchi lingvistik tizimdir. Ularning nazariy asoslarini o‘rganish: til tarixini qayta tiklash,

lahja tasnifini aniqlashtirish, etnolingvistik jarayonlarni tadqiq etish, adabiy tilga ta’sir darajasini belgilash uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Surxondaryo shevalari areal, struktural, tarixiy va etnolingvistik jihatdan boy material bo‘lib, hozirgi kunda ham ularni har tomonlama keng qamrovda tadqiq etish dolzarbligicha qolmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mengliyev B. Xoliyorov. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. Toshkent-2008.
2. Rahimov S. Surxondaryo O‘zbek tili shevalari lug‘ati (Fonetikasi, Leksikasi).- Toshkent: Fan1969.
3. Samixon Ashurboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent 2013.
4. Nuritdinov, A. (2025). Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI*, 3(5).
5. Nuritdinov, A. (2024). JADID DAVRI ADABIY MUHITIGA DOIR ASARLARDAN KORPUSDA FOYDALANISH. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
6. Nuritdinov, A. (2022). O ‘ZBEK TILI KORPUSI UCHUN ABDURAUFI FITRATNING LINGVISTIK ASARLARINI MANBA SIFATIDA OLINISHI. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
7. Nuritdinov, A. S. O. G. L. (2022). O‘zbek tili milliy korpusi uchun jadid tilshunoslarining lingvistik asarlarini manba sifatida olinishi. *Science and Education*, 3(4), 2048-2057.
8. Yoqub Saidov. O‘zbek dialektologiyasi. Buxoro. “Durdona” nashriyoti.2021.